NAMANGAN VILOYATI UCHQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-oktabr 444-6-87-Q/24 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Uchqo‘rg‘on tumanidagi Chek, Ulug‘bek, Do‘stlik va Ko‘prikboshi mahalla fuqarolari yig‘ini xududidan o‘tuvchi davlat va mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarining ma’lum bir qismlariga tirbandlikni va xarakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi uchqo‘rg‘on tuman bo‘limining 2024-yil 6-sentabrdagi 0609/4-sonli taqdimnomasi hamda Uchqo‘rg‘on tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 7-sentabrdagi 01/133-sonli “Davlat ahamiyatidagi 4R 116 “Namangan sh-Uychi sh-Uchqo‘rg‘on sh-Xaqulobod sh” avtomobil yo‘lining 37-38 km oralig‘i, 4R 116A “Uchqo‘rg‘on sh-Ittifoq q” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, mahalliy ahamiyatidagi 4K 467 “Uchqo‘rg‘on sh-Norinkapa q” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, 4R 116A “Uchqo‘rg‘on sh-Ittifoq q” avtomobil yo‘lining 1-2 km oralig‘i, 4R 116V “Uchqo‘rg‘on sh-Bo‘ston q-Qirg‘iziston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 0-1 km kesishmasi, mahalliy ahamiyatdagi 4K 472 “Uchqo‘rg‘on shahri oromgohiga” avtomobil yo‘lining 0-2 km oralig‘larida amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish haqida” xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN

1. Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi uchqo‘rg‘on tuman bo‘limining 2024-yil 6-sentabrdagi 0609/4-sonli taqdimnomasi hamda Uchqo‘rg‘on tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 7-sentyabrdagi 01/133-sonli “Davlat ahamiyatidagi 4R 116 “Namangan sh-Uychi sh-Uchqo‘rg‘on sh-Xaqulobod sh” avtomobil yo‘lining 37-38 km oralig‘i, 4R 116A “Uchqo‘rg‘on sh-Ittifoq q” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, mahalliy ahamiyatidagi 4K 467 “Uchqo‘rg‘on sh-Norinkapa q” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, 4R 116A “Uchqo‘rg‘on sh-Ittifoq q” avtomobil yo‘lining 1-2 km oralig‘i, 4R 116V “Uchqo‘rg‘on sh-Bo‘ston q-Qirg‘iziston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 0-1 km kesishmasi, mahalliy ahamiyatdagi 4K 472 “Uchqo‘rg‘on shahri oromgohiga” avtomobil yo‘lining 0-2 km oralig‘larida amaldagi yo‘l xarakati

qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish haqida” xatlari asos uchun qabul qilinsin.

2. Uchqo‘rg‘on tumanidagi Chek, Ulug‘bek, Do‘stlik va Ko‘prikboshi mahalla fuqarolari yig‘ini xududidan o‘tuvchi davlat va mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarining ma’lum bir qismlariga tirbandlikni va xarakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (O.Jabborov)ga:

- Uchqo‘rg‘on tuman xududida xarakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish yuzasidan transport vositalari harakatlanish davrida xarakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (X.Ataxanov)ga:

- amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Madraximov), va “Yorqin hayot” gazetasi (S.Najmiddinova)ga amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida gazeta ro‘znomalari va tuman hokimligi rasmiy veb sayti orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkr qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari S.Xojayev hamda IIB boshlig‘i O.Jabborov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Mirxanov**